

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.06.2021.B.05.06
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETINING
TOSHKENT FILIALI**

RAXMATOVA SAYYORA KOMILJON QIZI

**CHIRCHIQ DARYOSI IXTIOFAUNASI YOT (INVAZIV) TURLARINING
BIOLOGIK XUSUSIYATLARI**

03.00.06 – Zoologiya

**BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Farg‘ona–2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of the abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) dissertation

Raxmatova Sayyora Komiljon qizi

Chirchiq daryosi ixtiofaunasi yot (invaziv) turlarining
biologik xususiyatlari 3

Рахматова Сайёра Комилжон кизи

Биологические особенности чужеродных (инвазивных) видов
ихтиофауны р.Чирчик 21

Rahmatova Sayyora Komilzhon kizi

Biological features of alien (invasive) species of ichthyofauna of the
Chirchik river 39

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ
List of published works 43

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.06.2021.B.05.06
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETINING
TOSHKENT FILIALI**

RAXMATOVA SAYYORA KOMILJON QIZI

**CHIRCHIQ DARYOSI IXTIOFAUNASI YOT (INVAZIV) TURLARINING
BIOLOGIK XUSUSIYATLARI**

03.00.06 – Zoologiya

**BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Farg‘ona–2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.PhD/B1172 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining Toshkent filialida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.fdu.uz) va “Ziyonet” Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Yuldashov Mansur Arzikulovich
biologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Xurramov Alisher Shukurovich
biologiya fanlari doktori, professor

Atamuratova Muhayyo Shavkatovna
biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, katta ilmiy xodim

Yetakchi tashkilot:

Buxoro davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Farg‘ona davlat universiteti huzuridagi PhD.03/30.06.2021.B.05.06 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil 20-avgust kuni soat 11:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 150100, Farg‘ona shahri, Murabbiylar ko‘chasi, 19-uy. FarDU.Tel.: (+99873) 244-44-02, faks (+99873) 244-44-93, E-mail: fardu_info@umail.uz)

Dissertatsiya bilan Farg‘ona davlat universiteti axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№554-raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 150100, Farg‘ona shahri, Murabbiylar ko‘chasi, 19-uy, Tel.: (+99873) 244-44-94.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 8-avgust kuni tarqatildi.
(2025-yil 8-avgustdagi 31-raqamli reyestr bayonnomasi).



I.I. Zokirov

I.I. Zokirov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, b.f.d., professor

B.M. Sheraliyev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, b.f.f.d. (PhD), dotsent

A.K. Xusanov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, b.f.d., professor

A.K. Xusanov

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda son jihatdan o‘zib borayotgan aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta‘minlash muammosi oshib bormoqda, bu esa baliq va baliq mahsulotlari yetishtirish hajmini oshirishni talab etadi. Shu bilan bir birga, baliqlar bioxilma-xilligini saqlash, suv havzasi ekotizimidagi boshqa gidrobiontlar shu jumladan, ovlanish ahamiyatiga ega bo‘lmagan turlar bilan o‘zaro munosabati o‘rganishga qaratilgan tadqiqotlarga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Biologik zahiralardan umumli foydalanadigan yangi mahsuldor texnologiyalarni kompleks qo‘llash orqali suv havzasidagi baliq zahiralardan samarali foydalanishga erishish mumkin. Biologik zahiralarni shu jumladan, kuchli antropogen ta‘sir ostida qolgan hududlardagi populyatsiyalar zamonaviy holatini baholashga qaratilgan tadqiqotlar muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Jahonda shu jumladan, MDH mamlakatlarida baliq zahiralardan samarali foydalanishda muayyan suv havzasidagi barcha baliq turlari zamonaviy holatiga baholashga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Yangi texnologiyalarni ishlab chiqishda ixtiofaunaning zamonaviy holatini doimiy monitoring qilib orilmoqda. Bu borada, suv havzalaridagi aborigen turlar bilan oziqlanish, ko‘payish joylari bo‘yicha raqobat qiluvchi invaziv turlarning zamonaviy biologik xususiyatlarini o‘rganish, baliq populyatsiyalarining barqaror holatida baliq zahiralardan foydalanish, mavjud suv havzalarida mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirishga qaratilgan tadqiqotlar muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekistonda Chirchiq daryosi havzasi kuchli antropogen ta‘sir ostida bo‘lib, ayni paytda unda akvakultura yaxshi rivojlangan bo‘lib, bioxilma-xillikning muhim tarkibiy qismi hisoblangan ovlanish ahamiyatiga ega bo‘lmagan baliq turlarining hozirgi holatini baholashga muayyan darajada e‘tibor qaratilmoqda. So‘nggi yillarda mavjud suv havzalari salohiyatidan samarali foydalanish orqali baliq mahsuldorligini oshirish bo‘yicha qator vazifalar belgilab berilgan, jumladan 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida¹ “...suv zaxiralarini boshqarish tizimini tubdan isloh qilish”, “chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 1,5-2 hissa oshirish” shuningdek, “eksportga mo‘ljallangan mahsulotlarni yetishtirish va eksport salohiyatini oshirish” bo‘yicha vazifalar belgilab berilgan. Bu vazifalarni hal etishda turli tipdagi suv havzalarida mavjud bo‘lgan baliq turlari shu jumladan, ovlanish ahamiyatiga ega bo‘lmagan turlarning holatini monitoring qilish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 1-maydagi PQ-2939-son “Baliqchilik tarmog‘ini boshqarish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi, 2018-yil 6-apreldagi “Baliqchilik sohasini jadal rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 3657-son qarori, 2022-yil 13-yanvardagi PQ-83-son “Baliqchilik tarmog‘ini yanada rivojlantirishning

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026 -yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni

qo`shimcha chora-tadbirlari to`g`risda”gi, 2023-yil 18-avgustdagi “Baliqchilik xo`jaligi ehtiyojlari uchun suv havzalaridan foydalanish tartibini takomillashtirish hamda baliq ovlash va suv bo`yi turizmi maskanlarini rivojlantirish chora-tadbirlari to`g`risida”gi PQ-281-sonli qarorlari hamda, mazkur faoliyatga tegishli boshqa me`yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqotlari muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo`nalishlariga bog`liqligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiya rivojlanishining V. “Qishloq xo`jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi” ustuvor yo`nalishiga mos ravishda bajarilgan.

Muammoning o`rganilganlik darajasi. Jahon amaliyotida alohida hududlar, qit'a, yer sayyorasining ixtiofanasi tarkibi shu jumladan, ixtiofaunasining sifat tarkibi va baliqlar biologiyasi haqidagi tadqiqotlar har doim fundamental ishlarning asosiy tarkibiy qismi sanaladi (Robins et al, 1991; Nelson, 2006; Kottelat, Freyhof, 2007 va boshq.)

MDH mamlakatlarida barcha geografik hududlarda baliqlarning tarqalish areali, sistematikasi, morfologik xususiyatlari, o`sishi, jinsiy voyaga yetishi, oziqlanishi bo`yicha tadqiqotlar olib borildi (Berg, 1949; Abduraxmanov, 1962; Smirnov, 1986; Aliyev va boshq., 1988; Mitrofanov va boshq., 1988; Slinko va boshq., 2014; Moskul va boshq., 2021). Ularda baliqlar morfologik ko`rsatkichlari atrof-muhit o`zgarishiga javob ekanligi, fenotipik o`zgaruvchanlik qanchalik yuqori bo`lsa, turlararo raqobatda ularning moslashuvchanlik imkoniyatlari shunchalik yuqori bo`lishi, ko`chirib kelingan turlar gidroekotizimning tarkibiy qismiga aylanganligi ko`rsatilgan (Slinko va boshq., 2014; Moskul va boshq., 2021).

O`zbekistonda ixtiofauna XX asrning ikkinchi yarmida keng qamrovli irrigatsiya tizimlari qurilishi va iqlimlashtirish ishlaridan keyin o`rganilgan (Kamilov 1973, Amanov 1972, 1985, Abdullayev 1989, Xaqberdiyev 1994, Mirzayev 1995, 2015, Salixov va boshq., 2003, Yuldashov va boshq. 2018), shuningdek, ixtiofaunaga ko`chirib kelingan yangi turlarning sharhi keltirilgan (Yuldashov, Kamilov, 2018, Sheraliyev va boshq.2020 (a,b,v),2022,2023, Qayumova 2021, Allayorov 2023). Biroq, respublikada kuchli antropogen omil ta`siri ostida qolgan va ko`pchilik invaziv turlarni ko`chirib kelish markazi bo`lgan Chirchiq daryosi ixtiofaunasi bo`yicha tadqiqotlar olib borilmagan. Chirchiq daryosi misolida ko`chirib kelingan turlar fenotipik o`zgaruvchanligini tahlil qilishga qaratilgan tadqiqotlar umumzoologik tadqiqotlarda va turlarning yangi sharoitga moslashuvchanligini o`rganishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan Oliy ta`lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog`liqligi. Dissertatsiya tadqiqotlari O`zR FA Zoologiya institutining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq $\Phi 3$ -2020092812-sonli “O`zbekiston baliq xo`jaligi rivojlanishini nazariy asoslash uchun gidrobiontlarning moslashuvchanlik imkoniyati va populyatsion fenotipik turli-tumanligini o`rganish” (2022-2026) mavzusidagi fundamental loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Chirchiq daryosi havzasiga tasodifan kelib qolgan va u yerga moslashgan ovlanish ahamiyatiga ega bo'lmagan invaziv baliq turlarini aniqlash va ularning hozirgi davrdagi biologik xususiyatlariga baho berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

invaziv turlar uchun yangi bo'lgan yashash muhiti suvining baliqchilik sifat ko'rsatkichlarini o'rganish;

o'rganilayotgan invaziv turlarning hozirgi morfologik holatiga tasnif berish;
ko'rsatilgan invaziv turlarning tur uchun yangi sharoitdagi plastik belgilari tasnifini o'rganish;

invaziv baliq turlarining o'lchamlari, o'sishini aniqlash
invaziv turlar reproduktiv biologik xususiyatlari shakllanishini o'rganishdan iborat.

Tadqiqotning obyekti sifatida Chirchiq daryosining tekislik qismidagi baliqchilik sifat ko'rsatichi, ixtiofaunasining sifat tarkibi, amur uclabi (*Opsariichthys bidens*), dog'li labdor, (*Tryplophysa trauchii*), oddiy qirraqorin (*Hemiculter leucisculus*), kichik psevdorazbora, (*Pseudorasbora parva*), kumush tovonbaliq (*Carassius gibelio*) kabi baliq turlari olingan.

Tadqiqotning predmetini suvning sifat ko'rsatkichlari, baliq turlari, baliqlarning o'sishi, jinsiy voyaga yetishi va serpushtligi sanaladi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishida suvning baliqchilik ko'rsatkichlarini tahlil qilishning umum qabul qilingan usullari, irrigatsiya havzalari, daryo va hovuzlardagi ixtiologik tadqiqotlar. Natijalarni statistik tahlil qilish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Chirchiq daryosining va unga tutash suv havzalari suvining sifat ko'rsatkichlari unda yashaydigan turlar biologik talablariga mos kelishi asoslangan;

invaziv turlarning yangi sharoitga moslashish jarayonidagi morfologik ko'rsatkichlari aniqlangan hamda har bir turning o'zgaruvchan ko'rsatkichlari keltirilgan;

ilk marta o'rganilgan invaziv turlarning plastik belgilari klassik va zamonaviy geometrik morfometriya usulida aniqlangan, ushbu baliq turlarining tana o'lchamlari, yoshi, o'sishi bo'yicha olingan ma'lumotlar baholangan;

turlarning sanoat baliqchiligida foydalaniladigan allometrik o'sish ko'rsatkichlari keltirilgan;

Chirchiq daryosi sharoitidagi invaziv turlarning reproduktiv biologiyasiga oid ko'rsatkichlari aniqlangan hamda, o'rganilgan barcha turlar tabiiy arealidagi suv havzalaridagi vakillariga nisbatan bir yil oldin jinsiy voyaga yetishi asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

O'rganilgan invaziv turlarning o'ziga xos yangi sharoitidagi asosiy biologik ko'rsatkichlari bo'yicha olingan ma'lumotlar ushbu turlarning ekologik valentligi (moslashish xususiyati) yuqori ekanligi hamda, populyatsiyalar zamonaviy holatini monitoring qilish uchun ilmiy asos bo'lishi ochib berilgan.

turlarning yangi yashash sharoitidagi plastik belgilari zamonaviy geometrik morfometriya usulda aniqlanganda populyatsiyadagi baliqlar tana tuzilishini aniqroq tasvirlay olishi isbotlangan.

Ovlanish ahamiyatiga ega bo'lmagan invaziv turlar mahalliy ixtiofaunaning muhim tarkibiy qismiga aylanganligi va ekotizimdagi barcha ekologik jarayonlarda ishtirok etishi, ayrim turlar esa rekreatsion baliqchilik obyekti hisoblanishi ilmiy asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi Chirchiq daryosi havzasining o'rganilgan tekislik qismidagi turli biotoplari va hududlaridan yilning hamma mavsumlari davomida reprezentativ namunalar to'planganligidan kelib chiqadi. Reprezentativ namunalar o'rganilgan barcha biologik jarayonlar: baliqlarning o'lchami, yoshi, avlodlarining o'sishi, yashash muhiti, gonadogenez va gametogenez, mutlaq, nisbiy va ishchi serpushtlik ko'rsatkichlarini tahlil qilish uchun to'plangan. Olingan ma'lumotlar variatsion statistika usullari (bir o'zgaruvchan omil statistikasi, korrelyatsion va regreksion tahlil) yordamida qayta ishlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati Chirchiq daryosi ixtiofaunasi tarkibining hozirgi vaqtdagi taksonomik tahlili natijasida tasodifan kelib qolgan invaziv turlar, Xitoy va Balxash faunasidan ko'chirib kelingan turlar mahalliy sharoitga moslashib tegishli ekologik muhitdan aborigen turlarni agressiv siqib chiqarganligi va zamonaviy ixtiofauna tarkibiga mustahkam kirganligi hamda, baliqlarning morfologik (meristik va plastik) o'zgaruvchanligi, osish va reproduktiv biologik xususiyatlari ochib berilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati Zoologiya instituti baliqlar zoologik kolleksiyasining boyitilganligi, *Hemiculter leucisculus* turining COI nukleotidlar ketma-ketligi bo'yicha ma'lumotlari Biotexnologik axborotlar Milliy markazi GenBanki bazasiga joylashtirilganligi ular Chirchiq daryosi ixtiofaunasi bioxilma-xilligini saqlash bo'yicha chora-tadbirlarni tashkil etishga asos bo'lib xizmat qilishi, baliqlar yashash muhitini saqlash va himoya qilishga va tabiiy zahiralardan oqilona va barqaror foydalanishni ta'minlashga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Chirchiq daryosi ixtiofaunasi yot (invaziv) turlarining biologik xususiyatlari bo'yicha olingan tadqiqot ilmiy natijalar asosida:

Hemiculter leucisculus turining COI nukleotidlar ketma-ketligi bo'yicha ma'lumotlari Biotexnologik axborotlar milliy markazi GenBank bazasiga joylashtirilgan (Biotexnologik axborotlar milliy markazi, ncbi.nlm.nih.gov 2025-yil 9-aprel). Natijada, PV419720, PV419721, PV419722, PV419723, PV419724 va PV419725 inventar raqamlari olingan va ular xalqaro miqyosda ushbu turning filogeniyasini molekulyar-genetik identifikatsiyalash imkonini bergan;

O'zR FA Zoologiya institutining Zoologiya kolleksiyasi fondini boyitish uchun Chirchiq daryosi havzasidan yig'ilgan Cypriniformes turkumining Cyprinidae va Balitoridae oilalariga tegishli bo'lgan 5 ta invaziv turning (*Opsariichthys bidens* – 15 ta, *Triplophysa strauchi* –7 ta, *Pseudorasbora parva* –10 ta, *Hemiculter*

leucisculus – 12 ta va *Carassius gibelio* – 10 ta) 52 ta nusxadagi namunalari kolleksiyaga topshirilgan (O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining 2024-yil 11-dekabrda 4/1255-2742-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, kolleksiya namunalari Chirchiq daryosi havzasidagi invaziv baliqlarni tarqalishining zamonaviy holatini baholash, turli ekologik jarayonlarda qatnashishini o‘rganish imkonini bergan .

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 12 ta ilmiy ish chop etilgan. Shulardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalari chop etish tavsiya etilgan nashrlarda 7 ta maqola, jumladan, 4 ta respublika va 3 tasi xorijiy ilmiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, 4 bob, xulosalar, amaliy tavsiyalar va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 108 betni tashkil etadi.

DISSERTASIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslab berilgan, maqsad va vazifalar, shuningdek, tadqiqotning obyekti va predmeti ifodalangan, unda tadqiqotning O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarni rivojlantirish yo‘nalishlariga muvofiqligi keltirilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan, natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, chop etilgan ilmiy ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Birinchi bob **“Hududlar ixtiofaunasini hozirgi davrda o‘rganishga doir tadqiqotlar (Adabiyotlar sharhi)”** deb nomlangan bo‘lib, unda muayyan hududning ixtiofaunasi uning geologik tarixi, geografik xususiyatlari va antropogen ta’sirlariga bog‘liqligi ko‘rsatilgan. Ponto-Kaspiy-Orol provintsiyasi ichki suv havzalari tabiiy holatida g‘arbdan sharqqa tomon baliq turlari soni kamayib borish tendentsiyasi kuzatilmoqda va Orol dengizi havzasi eng qashshoq hisoblanadi. Antropogen omil oxirgi 2000 yil davomida irrigatsiya tizimining rivojlanishi ko‘rinishida, XX asrdan esa, baliqchilik xo‘jaligi ehtiyojlari uchun yot turlarni ko‘chirib kelish ko‘rinishida ta’sir qilib kelmoqda.

Chirchiq daryosining (Sirdaryoning eng yirik irmog‘i) umumiy uzunligi -174 km, suv yig‘iladigan maydoni -14 240 km². Suvi kanallar tarmog‘i orqali sug‘orishga olinadi, ularning ayrimlari daryo asosiy o‘zanidan ko‘proq suvga ega. Chirchiq daryosi suvining sifati uning yuqori oqimida sovuq suv baliqlari uchun, o‘rta va quyi oqimida esa iliq suv baliq turlari uchun qulay. Hozirgi vaqtda Chirchiq daryosida yashayotgan baliqlarning 21 turi aborigen, 18 turi introduksiya qilingan turlar hisoblanadi. Respublikamizda ko‘chirib kelish markazi bo‘lgan Chirchiq daryosi havzasida ko‘chirib kelingan baliq turlaridan tashqari tasodifan kelib qolgan turlari ham bor. Bir qator yot (invaziv) turlar mahalliy sharoitga moslashib ko‘pays


boshladi hamda populyatsiyalar hosil qildi hamda 20 dan oshiq almashinuvi sodir bo'ldi ammo, ularning biologik xususiyatlari kam o'rganilgan. O'rganilgan ko'chirib kelingan baliq turlarining tabiiy arealidagi biologiyasiga oid ma'lumotlar keltirilgan.

Ikkinchi bob **“Tadqiqot manbalari va uslublari”** deb nomlangan. Tadqiqot ishlari 2022-24-yillarda Chirchiq daryosining tekislik qismida olib borildi, baliqlar katak o'lchamlari 16-110 mm bo'lgan qo'yma to'rlar, katak o'lchamlari 6-10 mm bo'lgan tutqich va sudrama to'rlar yordamida ovlandi. Baliqlarning umumiy uzunligi (TL, sm), tanasining standart uzunligi (dum suzgich qanotisiz) (SL, sm), tanasining umumiy og'irligi (Q, g) aniqlandi. Meristik belgilari sanaldi. Plastik belgilari raqamli suratlarini baliqlarni o'lchashning klassik chizmasi (Pravdin, 1966) va baliqlar tanasi bo'ylab 10 ta mo'ljal «truss-protocol» deb ataladigan usul bo'yicha o'lchandi (Strauss, Bookstein, 1982; Strauss, Bond, 1990), plastik belgilarning baliqlar standart uzunligiga bo'lgan nisbat ko'rsatkichlari (%) hisoblab chiqildi. Baliqlar yorilganda ularning jinsi, gonadalarining jinsiy voyaga yetish bosqichi, jinsiy voyaga yetgan vakillarining serpushtligi va jinsiy yetilgan ikralarining diametri aniqlandi. Barcha statistik ma'lumotlarni qayta ishlashda ishonchlilik darajasi $P \leq 0,05$ deb qabul qilindi.



“Ovlanish ahamiyatiga ega bo'lmagan yot turlarning morfo-biologik xususiyatlari” deb nomlangan uchunchi bobda o'rganilayotgan baliq turlari bo'yicha olingan natijalar keltirilgan.

3.1 – qism **“Amur uch labi”** deb nomlangan. Bu tur faqat Chirchiq daryosining quyi qismidagi o'zani yoyilgan, toshlar ko'p joylarida aniqlandi. Bu baliq suv havzalarimizdagi eng mayda yirtqich baliq sanaladi. Tanasi cho'zinchoq, yon tomonidan siqilgan, Jabra teshiklari katta, og'zi katta tumshug'ining oxirida joylashgan. Nisbatan yirik o'ljalarni tutish uchun yuqori jag'ida o'yiqlik va ikkita bo'rtiq hamda pastki jag'ida o'ziga xos “qulf” hosil qiluvchi bo'rtiq bor (1-rasm).

Namunalardagi (25 dona) baliqlar tanasining umumiy uzunligi – 6,5-11,5 sm, standart uzunligi – 5,5-10,0 sm, tanasining umumiy og'irligi – 3,1-13,1 g ni tashkil etdi. Tanasining umumiy uzunligi bilan standart uzunligi o'rtasida ijobiy bog'liqlik borligi aniqlangan va u $SL = 0,8119 * TL + 0,3539$ ($r = 0,98$) regressiya tenglamasi hamda $Q = 0,03 * SL^{2,6117}$ darajali bog'liqlik ko'rinishida ishonchli tasniflanadi (2-rasm).



1-rasm. Amur uch labining umumiy ko'rinishi (chapda), mo'ljallar va «truss – protocol» bo'yicha o'lchov chizmalari (o'ngda), Chirchiq daryosi, 2022-yil.



2-rasm. Amur uch lab balig‘i tanasi standart uzunligining umumiy uzunligi bilan bog‘liqligi (chapda) va tanasi umumiy og‘irligining standart uzunligi bilan bog‘liqligi, Chirchiq daryosi 2023 y

Meristik ko‘rsatkichlari: D II-III 7, A III 9 ta. Yon chizig‘idagi (*l.l.*) tangachalar soni 39 - 49 ta. Birinchi oyquloq yoyidagi ustunchalar soni (*sp.br*)10-12 ta.

Amur uch lab balig‘ining karpsimon baliqlar oilasini o‘lchash chizmasi bo‘yicha olingan plastik belgilari ko‘rsatkichi 1-jadvalda, “truss-protocol” bo‘yicha 2-jadvalda keltirilgan.

1-jadval.

Amur uch lab balig‘i plastik belgilarining ko‘rsatkichlari (tanasining standart uzunligiga nisbatan%%), Chirchiq daryosi, 2022 y

| Ko‘rsatkich | Minimum | Maksimum | O‘rtacha $\pm S_x$ | CV,% |
|---|---------|----------|--------------------|------|
| Tanasining standart uzunligiga nisbatan%% | | | | |
| Tanasining umumiy og‘irligi | 112,6 | 123,8 | 118,13 \pm 0,50 | 2,1 |
| Gavdasining uzunligi | 72,5 | 76,1 | 74,18 \pm 0,18 | 1,2 |
| Tumshug‘ining uzunligi | 6,1 | 8,4 | 7,25 \pm 0,14 | 10,0 |
| Ko‘zining diametri | 5,3 | 8,2 | 6,49 \pm 0,13 | 9,7 |
| Boshining ko‘z orqa sohasi uzunligi | 11,0 | 13,8 | 12,22 \pm 0,15 | 6,1 |
| Boshining uzunligi | 23,9 | 27,5 | 25,82 \pm 0,18 | 3,6 |
| Boshining ensa sohasidagi balandligi | 15,1 | 18,2 | 17,04 \pm 0,13 | 3,9 |
| Tanasining nisbatan yo‘g‘on qismi | 20,3 | 23,6 | 21,60 \pm 0,14 | 3,3 |
| Tanasining nisbatan ingichka qismi | 9,2 | 10,2 | 9,75 \pm 0,05 | 2,7 |
| Antedorsal masofa | 48,6 | 52,5 | 50,05 \pm 0,17 | 1,7 |
| Postdorsal masofa | 33,5 | 40,4 | 36,27 \pm 0,37 | 5,1 |
| Dum o‘ining uzunligi | 14,4 | 21,4 | 18,17 \pm 0,36 | 9,9 |
| D asosining uzunligi | 12,4 | 20,5 | 16,38 \pm 0,39 | 11,9 |
| D ning eng baland qismi | 9,3 | 18,3 | 14,57 \pm 0,50 | 17,2 |
| A asosining uzunligi | 12,5 | 18,6 | 14,93 \pm 0,36 | 12,2 |

| <i>1-jadvalning davomi</i> | | | | |
|--------------------------------------|------|------|--------------|------|
| A ning eng baland qismi | 7,3 | 15,6 | 11,48 ± 0,52 | 22,8 |
| P uzunligi | 10,4 | 18,9 | 17,02 ± 0,35 | 10,3 |
| V uzunligi | 11,3 | 16,8 | 13,13 ± 0,23 | 8,8 |
| P-V oralig'idagi masofa | 21,8 | 27,5 | 24,24 ± 0,27 | 5,5 |
| V-A oralig'idagi masofa | 17,0 | 21,3 | 18,57 ± 0,19 | 5,1 |
| Boshining uzunligiga nisbatan%% | | | | |
| Tumshug'ining uzunligi | 24,0 | 32,3 | 28,06 ± 0,46 | 8,3 |
| Ko'zining diametri | 20,5 | 31,9 | 25,18 ± 0,53 | 10,5 |
| Boshining ko'z orqa sohasi uzunligi | 43,3 | 53,0 | 47,33 ± 0,45 | 4,8 |
| Boshining ensa sohasidagi balandligi | 60,8 | 70,1 | 66,06 ± 0,52 | 3,9 |

Jinsiy voyaga yetishning IV bosqichida bo'lgan gonadalar uzunligi 10 sm dan katta baliqlarda aniqlandi, bu baliqlar tangachasining tahlili ular 2 – yoshda ekanligini ko'rsatdi. Shunday qilib, Sirdaryoning o'rta oqimi sharoitida amur uch lab balig'i 2-3-yoshida, tanasining uzunligi 10 -12 ga yetganda jinsiy voyaga yetadi.

Ko'payishi aprel-iyun oylarida, suv harorati – 18-23°C ga isiganda kuzatildi. Erkaklarining jag'ida, ko'zida, qornida, anal suzgich qanotida oq burtmalar ko'rinishidagi “nikoh hashamati” ko'rinadi, tanasi esa ko'ndalang qora chiziqlari yaxsi sezilib turadigan yorqin kamalak tusga kiradi.

May oyida tutilgan urg'ochi baliqlar gonadasidagi ikralarning o'lchami har-xil ekanligi ya'ni, jinsiy voyaga yetishi bo'laklarga bo'linganligi aniqlandi. Amur uch lab balig'i ikralarini daryo oqimida tosh-shag'al qatlamli joylarga qo'yadi. Erkaklarining o'z ko'payish joyi bo'lib u yerga boshqa erkak baliqlarning kirishiga yo'l qo'ymaydi.

2-jadval

Amur uch lab balig'i tanasining “truss-protocol” bo'yicha o'lcham ko'rsatkichlari (tanasining standart uzunligiga nisbatan%%), Chirchiq daryosi, 2023 y

| <i>Ko'rsatkich</i> | <i>Minimum</i> | <i>Maksimum</i> | <i>O'rtacha ± S_x</i> | <i>CV, %</i> |
|--------------------|----------------|-----------------|---------------------------------|--------------|
| 2 – 4 | 19,6 | 24,0 | 22,16 ± 0,17 | 3,9 |
| 4 – 6 | 26,0 | 30,4 | 28,00 ± 0,27 | 4,8 |
| 6 – 8 | 12,4 | 20,5 | 16,38 ± 0,39 | 11,9 |
| 8 – 10 | 28,4 | 36,8 | 32,63 ± 0,51 | 7,8 |
| 9 – 10 | 7,7 | 12,3 | 10,53 ± 0,22 | 10,4 |
| 7 – 9 | 4,8 | 18,2 | 14,84 ± 0,68 | 22,9 |
| 5 – 7 | 12,5 | 18,6 | 14,93 ± 0,36 | 12,2 |
| 3 – 5 | 15,3 | 22,4 | 17,65 ± 0,29 | 8,3 |
| 2 – 3 | 46,4 | 52,1 | 50,32 ± 0,26 | 2,6 |
| 1 – 2 | 18,1 | 27,3 | 22,31 ± 0,40 | 9,0 |
| 1 – 4 | 16,4 | 19,5 | 18,26 ± 0,15 | 4,0 |

| <i>2-jadvalning davomi</i> | | | | |
|----------------------------|------|------|--------------|-----|
| 1 – 3 | 22,0 | 31,5 | 28,58 ± 0,47 | 8,2 |
| 3 – 4 | 31,7 | 39,6 | 34,73 ± 0,37 | 5,3 |
| 5 – 6 | 20,3 | 23,0 | 21,50 ± 0,14 | 3,3 |
| 7 – 8 | 18,4 | 25,6 | 21,68 ± 0,41 | 9,4 |
| 4 – 5 | 46,4 | 52,5 | 49,23 ± 0,30 | 3,0 |
| 3 – 6 | 18,2 | 23,6 | 21,52 ± 0,25 | 5,7 |
| 6 – 7 | 33,3 | 39,2 | 36,26 ± 0,32 | 4,4 |
| 5 – 8 | 16,0 | 19,8 | 17,80 ± 0,20 | 5,6 |
| 7 – 10 | 16,1 | 23,5 | 19,17 ± 0,33 | 8,6 |
| 8 – 9 | 30,2 | 38,1 | 34,68 ± 0,49 | 7,1 |

Individual mutlat serpushtligi 10 ta namunadagi urg‘ochi baliqlarda – 5,2-14,8 (o‘rtacha 62,5) ming donani tashkil etdi.


“Dog‘li labdor” deb nomlangan 3.2 - bo‘limda, Chirchiq daryosi havzasiga 1950-yillarda tasodifan tushub, uning tekislik qismida tarqalgan ammo, Orol dengizi havzasining boshqa hududlarida tarqala olmaganligi ko‘rsatilgan.

Umumiy uzunligi – 6,5-15,0 sm va standart uzunligi 5,5-13 sm bo‘lgan 44 ta namuna tahlil qilindi (3-rasm). Bu baliqning tanasi urchuqsimon, tangachalarsiz. Dum tanasi anal suzgich qanotidan keyin asosi bo‘ylab yonidan siqilmaganligi ko‘rinib turadi.

Meristik belgilari: D III-IV 7-9, A III 5 sho‘‘la, sp.br - 11-17 ta ustuncha. Plastik belgilari ko‘rsatkichlari 3-jadvalda keltirilgan.

Bahorda tanasining standart uzunligi 8 sm dan katta bo‘lgan baliqlarda jinsiy voyaga yetishning IV bosqichidagi gonadalarga ega edi. Dog‘li labdor baliqning ko‘payishi 2023-yilda suvning o‘rtacha kunlik harorati 13°C (mart) va 19°C ga yetganda 2 marta, mart oyining oxirida va may oyining o‘rtalarida kuzatildi.


10 ta urg‘ochi baliqning mutlaq serpushtligi o‘rganilib – 6,2-9,8 ming donaga teng ekanligi aniqlandi. Mart oyida gonadalardagi tuxum xujayralari o‘lchamidan jinsiy voyaga yetishi bo‘laklarga bo‘linishi ko‘rinib turadi. Dog‘li labdor baliq bir vegetatsiya mavsumida ikralarini 2, maksimum 3 bo‘llakka bo‘lib tashlaydi deb taxmin qilish mumkin.



3-rasm. Dog‘li labdor balig‘ining umumiy ko‘rinishi (chapdan), mo‘ljallar va «truss – protocol» bo‘yicha o‘lchov chizmalari (o‘ngda), Chirchiq daryosi, 2022-2024-yillar


3.3 – bo‘lim “Oddiy qirraqorin” deb nomlangan. Bu Xitoy faunistik kompleksidan ko‘chirib kelingan baliq turi Orol dengizi havzasidagi barcha lentik

suv havzalarda uchraydi, tanasi cho‘zinchoq, yelka qismi to‘q yashil tusda, qorin qismi va yon tomonlari kumush rangda. Butun tanasi tez tushib ketadigan tangachalar bilan qoplangan. Bu baliq juda tez suzadi, dum suzgich qanoti kuchli o‘yiq shaklida (ko‘pchilik vakillarida dumining ostki qanoti ustki qanotidan biroz uzun). Yelka suzgich qanotida silliq o‘tkir tikani bor. Tomog‘idan anal suzgichigacha tangacha bilan qoplanmagan kil suyagi bor (5-rasm).



5-rasm. Oddiy qirraqorin baliqning umumiy ko‘rinishi (chapda), «truss – protocol» bo‘yicha mo‘ljallar va o‘lchov chizmasi (o‘ngda) Chirchiq daryosi daryosi, 2022-2024-yillar.

Namunalardagi (100 dona) baliqlarning standart tana uzunligi – 4,5 - 20,8 sm, tanasining umumiy og‘irligi – 0,86-107 g dan iborat bo‘ldi. Oqqiy qirraqorin standart tana uzunligi bilan tanasining umumiy uzunligi o‘rtasida kuchli ijobiy bog‘liqlik borligi aniqlandi: $SL = 0,8397 * TL + 0,766$ ($r = 0,99$) shuningdek, tanasining umumiy og‘irligi bilan ham kuchli bog‘langan: $Q = 0,00007 * SL^{3,108}$ ($r = 0,97$) (6-rasm).




6-rasm. Oddiy qirraqorin baliq tanasi standart uzunligining umumiy uzunligi (chapda) va tanasining umumiy og‘irligiga bog‘liqligi (o‘ngda). Chirchiq daryosi, 2022-2024-yillar

Meristik belgilari: D II 7-9, A III 10-13, l.l. 42-50 ta tangacha, sp.br. 15-21 ta ustunchasi bor.

Barcha 1 yoshdagi baliqlar (standart uzunligi – 1,5 - 6,8 sm) bahorda jinsiy voyaga yetishning I bosqichida bo‘lgan gonadalarga ega edi, ikkinchi yildan boshlab baliqlar o‘sishi va jinsiy voyaga yetishida farq kuzatila boshladi (jinsiy voyaga yetishi va ikralarini bo‘laklarga bo‘lib tashlashning ta’siri bo‘lsa kerak). Har ikkala jins vakillari tanasining standart uzunligi – 4-14 sm ga yetganda jinsiy voyaga yetishning II bosqichiga o‘tadi. Nisbatan yirik bo‘lgan vakillari hayotining ikkinchi yilida jinsiy voyaga yetishning IV bosqichida bo‘lgan gonadalarga ega edi. Har ikki jins vakillari tanasining standart uzunligi – 12-20,3 sm ga yetganda jinsiy voyaga yetadi. Jinsiy voyaga yetgan urg‘ochi baliqlar aprel oyida og‘irligi – 0,88-5,38 g

bo'lgan gonadalarga ega bo'lib, aprel oyining birinchi yarmida jinsiy yetilganlik koeffitsiyenti – 1,5 - 7,8% ni tashkil qildi. Shunday qilib, oqqiy qirraqorin hayotining ikkinchi yilida jinsiy voyaga yetadi.

3.4 – bo'lim “Kichik psevdorasbora” deb nomlangan. Xitoy tekislik kompleksidan ko'chirib kelingan bu baliq ham O'zbekistonning tekislik qismidagi suv havzalarida keng tarqaldi. Tanasi cho'zinchoq, og'zi kichkina tepa tomonda, mo'ylovlari yo'q. Mayda vakillarida tanasining yon tomonidan qora chiziq o'tadi, yiriklarida bu chiziq unchalik bilinmaydi, guyoki yo'qoladi. Tangachasi yirik, jinsiy voyaga yetganlarida tangachalarining cheti qora gardish bilan o'ralgan (7-rasm).




7-rasm. Kichik psevdorasboraning umumiy ko'rinishi (chapda), «truss – protocol» bo'yicha mo'ljallar va o'lchov chizmasi (o'ngda), Chirchiq daryosi, 2022-2024-yillar.

Namunalardagi (120 dona) baliqlar tanasining umumiy uzunligi – 4,0-11,1 sm, standart uzunligi – 3,5-9,3 sm, tanasining umumiy og'irligi – 1,0-14,1 g ni tashkil etdi. Tanasining standart uzunligi tanasining umumiy uzunligiga bog'liqligi aniqlandi $SL = 0,743 * TL + 8,04$ ($r = 0,96$), tanasining umumiy og'irligi bilan standart uzunligi o'rtasida ham bog'liqlik mavjud ($Q = 0,00001 * SL^{2,99}$) ($r = 0,96$) (8-rasm).

Meristik ko'rsatkichlari: D III 7 (8), A II 6. Yon chizig'idagi tangachalar soni – 33 - 37 (o'rtacha 35) ta.

Kichik psevdorasbora plastik belgilarining karpsimon baliqlar oilasi vakillarini o'lchashning klassik chizmasi bo'yicha olingan ko'rsatkichlari 3-jadvalda, «truss-protocol» bo'yicha olingan ko'rsatkichlari 4-jadvalda keltirilgan.



8-rasm. Kichik psevdorasbora baliq tanasi standart uzunligining tanasi umumiy uzunligiga bog'liqligi (chapda), umumiy og'irligining tanasi standart uzunligiga bog'liqligi (o'ngda), Chirchiq daryosi, 2022-2023-yillar.

3-jadval

Kichik psevdorasbora plastik belgilari ko'rsatkichi (tanasing standart uzunligiga nisbatan%), Chirchiq daryosi, 2022-yil

| Ko'rsatkichlar | Minimum | Maksimum | O'rtacha $\pm S_x$ | CV,% |
|--------------------------------------|---------|----------|--------------------|------|
| Gavdasining uzunligi | 74,5 | 80,3 | 77,02 \pm 0,36 | 2,1 |
| Tumshug'ining uzunligi | 5,7 | 10,0 | 7,88 \pm 0,22 | 12,4 |
| Ko'zining diametri | 3,5 | 7,0 | 5,14 \pm 0,21 | 18,1 |
| Boshining ko'z orqa sohasi | 9,5 | 13,4 | 11,45 \pm 0,26 | 10,1 |
| Boshining uzunligi | 21,2 | 27,6 | 24,40 \pm 0,37 | 6,8 |
| Boshining ensa sohasidagi balandligi | 15,6 | 22,1 | 18,32 \pm 0,31 | 7,5 |
| Tanasining eng yo'g'on qismi | 0,0 | 27,9 | 24,50 \pm 1,32 | 24,0 |
| Tanasining eng ingichka qismi | 11,1 | 17,7 | 12,79 \pm 0,31 | 10,8 |
| Antedorsal masofa | 48,3 | 53,4 | 50,93 \pm 0,32 | 2,8 |
| Postdorsal masofa | 19,0 | 23,2 | 21,22 \pm 0,33 | 5,2 |
| Dum o'qining uzunligi | 14,8 | 20,7 | 17,91 \pm 0,36 | 8,9 |
| D asosining uzunligi | 12,5 | 18,8 | 14,90 \pm 0,39 | 11,8 |
| D ning eng baland qismi | 15,1 | 21,9 | 18,85 \pm 0,40 | 9,5 |
| A asosining uzunligi | 7,8 | 12,7 | 9,68 \pm 0,31 | 14,2 |
| A ning eng baland qismi | 11,7 | 15,2 | 13,54 \pm 0,21 | 7,0 |
| P uzunligi | 14,4 | 21,1 | 17,13 \pm 0,37 | 9,8 |
| V uzunligi | 14,2 | 20,3 | 16,50 \pm 0,32 | 8,8 |
| P-V orasidagi masofa | 19,8 | 27,9 | 24,00 \pm 0,52 | 9,6 |
| V-A orasidagi masofa | 18,3 | 24,8 | 20,83 \pm 0,34 | 7,3 |

4-jadval

Kichik psevdorasboraning «truss-protocol» bo'yicha tana o'lchami ko'rsatkichlari (tanasing standart uzunligiga nisbatan%), Chirchiq daryosi, 2022

| Ko'rsatkich | Minimum | Maksimum | O'rtacha $\pm S_x$ | CV,% |
|-------------|---------|----------|--------------------|------|
| 2 - 4 | 16,0 | 23,4 | 19,89 \pm 0,35 | 9,7 |
| 4 - 6 | 27,9 | 35,7 | 31,47 \pm 0,34 | 5,9 |
| 6 - 8 | 12,1 | 20,1 | 15,08 \pm 0,30 | 11,0 |
| 8 - 10 | 29,4 | 37,8 | 34,14 \pm 0,33 | 5,3 |
| 9 - 10 | 11,6 | 14,8 | 12,76 \pm 0,15 | 6,3 |
| 7 - 9 | 13,8 | 20,8 | 17,26 \pm 0,30 | 9,6 |
| 5 - 7 | 7,4 | 13,2 | 9,82 \pm 0,26 | 14,6 |
| 3 - 5 | 18,1 | 25,1 | 20,98 \pm 0,30 | 7,7 |
| 2 - 3 | 48,7 | 55,7 | 51,20 \pm 0,31 | 3,3 |
| 1 - 2 | 18,4 | 27,0 | 21,67 \pm 0,36 | 9,2 |
| 1 - 4 | 15,9 | 22,1 | 18,44 \pm 0,22 | 6,6 |



| <i>4-jadvalning davomi</i> | | | | |
|----------------------------|------|------|------------------|------|
| 1 - 3 | 24,1 | 35,5 | $30,60 \pm 0,49$ | 8,8 |
| 3 - 4 | 35,2 | 51,7 | $38,51 \pm 0,55$ | 7,9 |
| 5 - 6 | 29,1 | 38,7 | $32,25 \pm 0,34$ | 5,7 |
| 7 - 8 | 20,7 | 32,1 | $24,41 \pm 0,38$ | 8,5 |
| 4 - 5 | 52,5 | 59,6 | $55,98 \pm 0,31$ | 3,1 |
| 3 - 6 | 23,2 | 41,0 | $25,86 \pm 0,57$ | 12,1 |
| 6 - 7 | 33,6 | 40,4 | $37,33 \pm 0,32$ | 4,7 |
| 5 - 8 | 19,1 | 24,0 | $21,38 \pm 0,24$ | 6,1 |
| 7 - 10 | 18,6 | 39,7 | $22,45 \pm 0,66$ | 16,0 |
| 8 - 9 | 22,1 | 42,6 | $37,35 \pm 0,63$ | 9,2 |

3.5 – bo‘lim “Kumush tovonbaliq” deb nomlangan. Bu tur Chirchiq daryosi havzasiga bir marta (1950-yillarda) maqsadli va bir marta (1960 yillarda) tasodifan ko‘chirib kelingan, hozirgi vaqtda hovuz baliqchilik xo‘jaliklarida juda ko‘p tarqalgan zashaki baliq. Hovuzlardagi kumush tovonbaliq tanasi kalta, baland, tanasi yitik tangachalar bilan qoplangan, yon va qorin qismi kumush rangda, yelka qismi to‘q-yashil rangda, orqa suzgich qanoti uzun. Og‘zi oxirida, mo‘ylovlari yo‘q, qorin qismi qora rangda (9-rasm).



9-rasm. Hovuz baliqchilik xo‘jaliklaridagi kumush tovonbaliqning umumiy ko‘rinishi (chapda), «truss – protocol» bo‘yicha mo‘ljallari va o‘lchov chizmasi (o‘ngda) Chirchiq daryosi, 2022-2024-yillar.

O‘rganilgan namunalardagi kumush tovonbaliqning standart uzunligi – 5,81-16,6 sm, tanasining umumiy og‘irligi – 61 - 88 g ni tashkil etdi. Kumush tovonbaliq tanasining standart uzunligi tanasining umumiy uzunligiga: ($SL = 0,844 \cdot TL - 4,254$; $r = 0,98$) va tanasining umumiy ogiriligiga bog‘liq ekanligi aniqlandi ($Q = 2 \cdot 10^{-5} \cdot SL^{2,9802}$; $r = 0,98$) (10-rasm).



10-rasm. Hovuz baliqchilik xo‘jaliklaridagi kumush tovonbaliq tanasi standart uzunligining umumiy uzunligiga (chapda) va tanasining umumiy og‘irligiga bog‘liqligi, 2022-2024

Meristik belgilari: D II-III 14-18, A II 3-6, yon chizig'idagi tangachalar soni – 25-31ta. Plastik belgilari ko'rsatkichlari 5 va 6-jadvallarda keltirilgan.

5-jadval

O'zbekiston baliqchilik xo'jaliklari hovuzlari kumush tovonbalig'ining plastik belgilari ko'rsatkichlari (tanasining standart uzunligiga nisbatan%%)

| <i>Ko'rsatkichlar</i> | <i>min</i> | <i>Max</i> | $X_{o'rtacha}$ | S_X | $C_v, \%$ |
|--------------------------------------|------------|------------|----------------|-------|-----------|
| Gavdasining uzunligi | 65,6 | 73,90 | 69,6 | 0,39 | 3,0 |
| Tumshug'ining uzunligi | 5,2 | 10,5 | 7,4 | 0,22 | 16,5 |
| Ko'zining diametri | 5,8 | 8,8 | 7,5 | 0,14 | 11,0 |
| Boshining ko'z orqa sohasi | 9,3 | 17,8 | 15,5 | 0,29 | 10,4 |
| Boshining uzunligi | 24,2 | 34,3 | 29,3 | 0,97 | 17,9 |
| Boshining ensa sohasidagi balandligi | 19,2 | 28,7 | 24,2 | 0,29 | 7,0 |
| Tanasining eng yo'g'on qismi | 32,1 | 40,3 | 36,1 | 0,27 | 4,0 |
| Tanasining eng ingichka qismi | 13,4 | 15,8 | 14,6 | 0,10 | 4,5 |
| Antedorsal masofa | 46,1 | 55,9 | 51,8 | 0,36 | 4,3 |
| Postdorsal masofa | 11,3 | 20,1 | 15,1 | 0,31 | 11,0 |
| Dum o'qining uzunligi | 9,6 | 16,5 | 12,9 | 0,27 | 11,9 |
| D asosining uzunligi | 34,1 | 42,4 | 38,4 | 0,34 | 5,0 |
| D ning eng baland qismi | 14,7 | 25,9 | 20,8 | 0,44 | 12,5 |
| A asosining uzunligi | 12,2 | 20,5 | 14,3 | 0,29 | 11,0 |
| A ning eng baland qismi | 13,1 | 24,7 | 20,2 | 0,40 | 11,0 |
| P uzunligi | 13,9 | 25,1 | 20,3 | 0,36 | 10,9 |
| V uzunligi | 15,3 | 22,0 | 18,6 | 0,97 | 21,2 |
| P-V orasidagi masofa | 18,0 | 23,7 | 21,2 | 0,26 | 6,7 |
| V-A orasidagi masofa | 21,9 | 28,0 | 25,2 | 0,33 | 7,0 |

6-jadval

Chirchiq daryosi havzasi baliqchilik xo'jaliklari hovuzlari kumush tovonbalig'ining «truss-protocol» chizmasi bo' yicha (tanasing standart uzunligiga nisbatan%%), 2022-yil

| <i>Ko'rsatkich</i> | <i>minimum</i> | <i>maksimum</i> | $X_{o'rtacha}$ | S_X | $C_v, \%$ |
|--------------------|----------------|-----------------|----------------|-------|-----------|
| 2 - 4 | 18,5 | 28,2 | 23,2 | 0,36 | 9,0 |
| 4 - 6 | 22,5 | 36,2 | 29,7 | 0,45 | 8,7 |
| 6 - 8 | 33,2 | 42,3 | 38,4 | 0,35 | 5,3 |
| 8 - 10 | 9,4 | 16,4 | 12,8 | 0,30 | 13,0 |
| 9 - 10 | 12,7 | 17,0 | 15,1 | 0,16 | 6,0 |
| 7 - 9 | 7,4 | 14,2 | 11,8 | 0,29 | 14,9 |
| 5 - 7 | 11,5 | 20,4 | 14,2 | 0,28 | 11,4 |
| 3 - 5 | 20,8 | 28,1 | 25,1 | 0,32 | 7,7 |
| 2 - 3 | 4,0 | 55,6 | 51,4 | 0,52 | 6,1 |

| <i>6-jadvalning davomi</i> | | | | | |
|----------------------------|------|------|------|------|-----|
| 1 - 2 | 23,1 | 34,6 | 30,9 | 0,44 | 7,9 |
| 1 - 4 | 19,1 | 28,3 | 24,5 | 0,29 | 7,9 |
| 1 - 3 | 15,6 | 24,9 | 21,2 | 0,34 | 8,9 |
| 3 - 4 | 31,9 | 46,5 | 41,3 | 0,46 | 6,0 |
| 5 - 6 | 35,4 | 47,5 | 44,1 | 0,38 | 5,5 |
| 7 - 8 | 14,6 | 20,5 | 17,6 | 0,20 | 6,9 |
| 4 - 5 | 49,5 | 67,1 | 61,5 | 0,48 | 4,2 |
| 3 - 6 | 28,7 | 39,0 | 36,1 | 0,35 | 5,7 |
| 6 - 7 | 40,7 | 54,7 | 48,5 | 0,39 | 4,9 |
| 5 - 8 | 21,3 | 27,9 | 25,8 | 0,21 | 4,7 |
| 7 - 10 | 16,0 | 22,5 | 19,7 | 0,24 | 7,3 |
| 8 - 9 | 17,0 | 24,1 | 20,8 | 0,29 | 8,0 |

Hovuz baliqchiligi sharoitida kumush tovonbaliqning gonadalarini hayotining birinchi yilida jinsiy voyaga yetishning II bosqichigacha rivojlanadi. Namunadagi barcha 2 – yoshdagi urg‘ochi baliqlar jinsiy voyaga yetgan edi. Mutlaq serpushtligi – 5250-6230 dona. Aprel oyining boshida gonadalarida bo‘laklarga bo‘linish aniq ko‘rinadi ammo, faqat birinchi bo‘lak ikralari yaxshi ko‘rinadi va ularning diametri – 0,81-1,01 (o‘rtacha 0,92) mm ni tashkil etadi. Nisbatan kichikroq sariqlik ootsitlarining diametri – 0,34 - 0,56 mm.

To‘rtinchi bob **“Ko‘chirib kelingan baliqlarning Chirchiq daryosi sharoitida morfo-biologik o‘zgaruvchanligi”** deb nomlanadi va unda o‘rganilgan baliq turlari yangi yashash sharoitiga moslashib yashab qolganligi, jinsiy voyaga yetib ko‘paya boshlaganligi qayd etilgan. Har bir baliq turi bo‘yicha olingan ma‘lumotlar ularning zamonaviy arealidagi ma‘lumotlarni to‘ldiradi. Har bir tur meristik belgilari bo‘yicha o‘zgaruvchanlik sezilarli darajada emasligi ularning yuqori darajadagi moslashuvchanlik xususiyatini namoyon etadi. Ko‘pchilik plastik belgilar ko‘chirib kelinganligiga 50 yil o‘tgandan keyin yangi sharoitda turg‘unlashdi, ularning o‘zgaruvchanlik koeffitssiyenti 10% dan kam (har bir turning 1-3 belgisining o‘zgaruvchanligi 10% dan yuqori ammo, 20% dan kam).

Barcha turlar o‘sishi bilan plastik belgilaridagi o‘zgaruvchanlik namoyon bo‘ladi (jinsiy voyaga yetmagan va jinsiy voyaga yetgan vakillari turli jinslarida 4-5 belgi bo‘yicha namoyon bo‘ladi. Barcha ko‘chirib kelingan baliq turlarining o‘sishi tez, serpushtligi yuqori, ikralarini bo‘laklarga bo‘lib qo‘yadi.

XULOSA

“Chirchiq daryosi ixtiofaunasi yot (invaziv) turlarining biologik xususiyatlari” - mavzusidagi dissertatsiyasi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosalar taqdim etildi:

1. Chirchiq daryosi havzasi suvining baliqchilik sifat ko‘rsatkichlari, kuchli antropogen ta‘sirga (tarmoqdagi irrigatsion qurilishlar, sanoat va maishiy

chiqindilar bilan ifloslanishi) qaramasdan invaziv turlar uchun qulay hisoblanishi qayd etildi.

2. Xitoy faunistik kompleksidan ko'chirib kelingan turlar morfologik xususiyatlari bo'yicha yuqori moslashuvchanlikni ko'rsatdi, bu ularga nafaqat ekologik muhitdagi aborigen turlar bilan raqobatga bardosh berish balkim, yutish imkonini berdi, shu tufayli ular Chirchiq daryosi tekislik suv havzalarida va butun Orol dengizi havzasi bo'ylab keng tarqaldi.

3. O'ziga xos ammo mahalliy sharoitga yaqin bo'lgan Balxash provinsiyasidan ko'chirib kelingan dog'li yalangbaliq faqat ko'chirib kelingan markaz – Chirchiq daryosi o'rta oqimida ko'payib ketdi, Orol dengizi havzasining boshqa hududlariga o'tmagan.

4. Barcha invaziv turlarning meristik va plastik belgilari (ayniqsa ilk marta o'tkazilgan geometrik morfometriya usulida aniqlangan) yangi sharoitda 25 dan ko'p avlod almashinuvidan keyin ham ularning tabiiy va boshqa hududlardagi tarqalish areali vakillari bilan taqqoslaganda unchalik kuchli o'zgarmagan.

5. Invaziv turlar rivojlanishi va o'sishini o'rganish natijalari, bu turlarning bizning hududda hosil qilgan populyatsiyalari hozirgi arealida eng tez o'suvchi hisoblanadi buni mamlakatimizning mo'tadil iqlimning janubida joylashganligi va vegetatsiya mavsumining uzoqligi bilan izohlash mumkin.

6. Xitoy kompleksidan ko'chirib kelingan turlar reproduktiv biologik xususiyatlari bo'yicha aborigen turlarga qaraganda nasli haqida faol g'amxo'lik qilish bo'yicha ustunlik qiladi bu esa ularga mavjud ekologik muhitlarda sezilarli darajada ustunlik bergan.

7. Amur uchlab balig'i o'rganilgan suv havzalarida tanasining standart uzunligi – 10-12 sm ga birinchi marta jinsiy voyaga yetadi, individual mutlat serpushtligi 5,2 - 114,8 ming donani tashkil etadi. Boshqa turlarda esa quyidagicha: dog'li yalangbaliq, tanasining uzunligi – 8 smga yetgana birinchi marta jinsiy voyaga yetadi, individual mutlaq serpushtligi – 6,2 - 9,8 ming dona, oddiy qirraqorinda ko'rsatkich mos ravishda – 12,4 - 44 ming dona, Amur chebagida – 3,4-4 sm, 780-3500 dona, kumush tovonbaliqda – 8-10 sm, 5,2-6,3 ming donani tashkil qiladi.

8. Ko'rsatib o'tilganlar o'rganilgan invaziv turlarning ekologik moslashuvchanlik imkoniyati yuqori ekanligini bildiradi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.03/30.06.2021.В.05.06 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ФЕРГАНСКОМ
ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

**ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ САМАРКАНДСКОГО
ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА ВЕТЕРИНАРНОЙ
МЕДИЦИНЫ, ЖИВОТНОВОДСТВА И БИОТЕХНОЛОГИИ**

РАХМАТОВА САЙЁРА КОМИЛЖОН КИЗИ

**БИОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ЧУЖЕРОДНЫХ
(ИНВАЗИВНЫХ) ВИДОВ ИХТИОФАУНЫ р.ЧИРЧИК**

03.00.06 – Зоология

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО
БИОЛОГИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Фергана–2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан под номером B2024.2.PhD/B1172.

Диссертационная работа выполнена в Ташкентском филиале Самаркандского государственного университета ветеринарной медицины, животноводства и биотехнологии.

Автореферат диссертации размещён на трёх языках (узбекском, русском и английском (резюме)) на веб-странице Научного совета (www.fdu.uz) и на информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziynet.uz).

Научный консультант:

Юлдашов Мансур Арзикулович
доктор биологических наук, профессор

Официальные оппоненты:

Хуррамов Алишер Шукурович
доктор биологических наук, профессор

Атамуратова Мухайё Шавкатовна
кандидат биологических наук, старший научный сотрудник

Ведущая организация:

Бухарский государственный университет

Защита диссертации состоится 20 августа 2025 года в 11:00 на заседании Научного совета PhD.03/30.06.2021.B.05.06 по присуждению ученых степеней при Ферганском государственном университете. (Адрес: 150100, г. Фергана, ул. Мураббийлар, 19. Тел.: (+99873) 244-44-02; Факс: (+99873) 244-44-93; E-mail: fardu_info@umail.uz)

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ферганского государственного университета (зарегистрирована под №554). (Адрес: 150100, г. Фергана, ул. Мураббийлар, 19. Тел.: (+99873) 244-44-94).

Автореферат диссертации разослан 8 августа 2025 г.
(Протокол реестра рассылки №31 от 8 августа 2025 г.).



И.И. Зокиров
Председатель Научного совета по присуждению учёных степеней, д.б.н., профессор

Б.М. Шералиев

Ученый секретарь Научного совета по присуждению учёных степеней, к.б.н., доцент

А.К. Хусанов

Председатель Научного семинара при научном совете по присуждению учёных степеней, д.б.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мире растет проблема обеспечения продовольствием растущего населения, что требует увеличение производства рыбы и рыбной продукции. Наряду с этим, особое внимание уделяется исследованиям по сохранению биоразнообразия рыб, взаимодействию с другими гидробионтами, в том числе непромысловыми и видами в экосистемах водоемов. Использование рыбных запасов водоемов может быть достигнуто путем комплексного применения новых продуктивных технологий, рационально использующих биологические ресурсы. Использование биологических ресурсов, в том числе исследования, направленные на оценку современного состояния популяций на территориях, подверженных сильному антропогенному воздействию, имеют важное научно-практическое значение.

В мире, в том числе в странах СНГ, при эффективном использовании рыбных запасов особое внимание уделяется оценке современного состояния всех видов рыб в конкретном водоеме. При разработке новых технологий проводят постоянный мониторинг современного состояния ихтиофауны водоема. Особенно важное научно-практическое значение имеют исследования современных биологических особенностей инвазивных видов, конкурирующих с аборигенными видами водоемов по питанию, местам размножения, направленных на использование рыбных запасов при устойчивом состоянии рыбопромысловых популяций, увеличение объемов производства продукции на существующих водных ресурсах.

